

## MOSHNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

*Igamberdiyev Dilshod Xolmurodovich, doktorant. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish ilmiy tadqiqot instituti.*

*Achilov Elyor Temirovich – assistent. Jizzax Politehnika Instituti, "Umumtexnika Fanlari" kafedrasini.*

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada mosh donining dunyo miqyosida yetishtirish samaradorligi, moshning tarkibida kimyoviy moddalar, moshning xalq xo'jaligida ahamiyatini keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Mosh, yetishtirish, ikkilamchi ekin, fosfor, tarkib, kimyoviy modda.

Dukkakli ekinlar yer yuzida 135 million gektar maydonga ekiladi, shundan takroriy ekin sifatida dukkakli don ekinlari 91.6 mln gektar maydonga ekilib, o'rtacha 206.4 mln tonnani tashkil etadi. Dunyo bo'yicha maydondan olinadigan hosil 5.3 mln tonnani tashkil etadi, moshni yetakchi va yetishtiruvchi va iste'molchi davlat Hindiston hisoblanadi.

Mosh (*Phaseolus aureus* Piper va oxirgi klassifikatsiya bo'yicha *Vigna Rdiate* (L) Wilzek) bir yillik o'tsimon o'simlik bo'lib dukkaklilar oilasining (*Lesominosol*) kapalakgullilar turiga mansub.

Mosh ko'proq Osiyo mamlakatlarida yetishtirilib, uning o'zbekcha nomi- Mosh, Ruscha nomi esa- Фасол золотистая, lotincha nomi barcha ilmiy manbalarda *Phaseolus aureus* deb yuritiladi.

Butun jahon oziq-ovqat tashkiloti (FAO) ning mashg'ulotlariga ko'ra dunyo bo'yicha yiliga 5.3 mln tonna mosh yetishtiriladi. Yetishtirilgan hosilning qariyb 90% Osiyo davlatlari xissasiga to'g'ri keladi. Mosh yetishtirish va iste'mol qilish bo'yicha Hindiston dunyo bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Dunyo bo'yicha mosh yetishtiriladigan maydonning 60% dan ortig'i Hindiston hududiga to'g'ri keladi. Bu mamlakatda yiliga 1.3 mln tonna hosil yig'ishtirib olinadi. Keyingi o'rinlarda Xitoy (920 ming tonna), Myanma (900 ming tonna), Koreya xalq respublikasiga (600 ming tonna), Tailand (350 ming tonna), Indoneziya (250 ming tonna), Pokkiston (240 ming tona), O'zbekiston (230-270 ming tonna) davlatlari turadi.

Moshning vatani Janubiy-G'arbiy Osiyo hisoblanib, dunyoning Hindiston, Afg'oniston, Eron, Pokiston, Birma, Yaponiya, Xitoy, Vetnam, O'zbekiston, Tojikiston va MDX mamlakatlarida yetishtirib kelinadi.


Oziq-ovqat uchun ishlatiladigan dukkakni don ekinlari orasida mosh doni ozuqalik qiymati, oqsil va vitaminlarga boy bo'lishi, kalloriyasining ko'pligi bilan ajralib turadi. Mosh oziqalik qiymati bilan bug'doy, loviya, no'xat, ko'k no'xat va javdar donlaridan 1.5-2 baravar, to'yimligi bo'yicha esa 1.5 baravar ustun turadi. Mosh tarkibidagi oqsilning xazmlanishi 86% ga yetadi.

Mosh doni tarkibida 24.8% oqsil, 1% moy, 3.5-4.5% kletchatka, 4.5-5.5% quli, 62-65% uglerodlar, 50.4% karbon suvlari, 1.5% moyli kislotalar, A, B1, B2, B3, B6, B0, C, E, K darmon dorilari, natriy, fosfor, va antioksidantlar mavjud.

Mosh takroriy ekin sifatida kuzgi bug'doy angizidda yetishtirilganida 300-400 s/ga ko'k massa hosili yetishtirilib, uni yerga haydab tashlansa, har gektar yerni 100 kg biologik azot, hamda chiritilgan gungning bir yillik me'yoriga teng darajadagi organik moddalar bilan boyitiladi.

Respublikamiz sharoitida kuzgi bug'doydan 60-70% s/ga, takroriy ekin sifatida yetishtiriladigan mosh ekinidan esa 15-20 s/ga don hosili yetishtirilib, bir mavsum davomida bir mavsum davomida yetishtiriladigan don hosilini 75-90 s/ga yetkazish Imkoniyatlari mavjud. Dukkakli don ekinlari orasida mosh ekiladigan maydon hajmi jahonda soyadan (dunyo bo'yicha soya maydoni 74 mln gektarga yaqin) keyin ikkinchi o'rin (25 mln gektarga yaqin) egallab turadi.

Moshdan oziq-ovqat xilma xilligi uchun turli taomlar tayyorlash mumkin. Asosiy va takroriy ekin sifatida moshni yetishtirish ekinlar diversifikatsiyasigaga yordam beradi va qisqa davr ichida daromad keltiradi. Mosh ishlab chiqish sanoatini rivojlantirish fermerlarning daromadini va aholining farovonligini oshirish uchun mahalliy bozor va eksport potentsialiga yo'naltirilgan istiqbolga egadir.



Respublikamizda dehqonchilik madaniyatini ko'tarish, fan-texnika yutuqlari va ilg'orlar tajribasini keng joriy qilish evaziga ekinlarning hosildorligini oshirish, hosil sifatini yaxshilash, ayniqsa mamlakatimizda don mustaqilligini ta'minlash ustida katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ekinlar strukturasi o'zgarishi munosabati bilan dukkakli don ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirish intensiv texnologiyalaridan biri sug'oriladigan maydonlarda ekilgan boshqoli don ekinlarini yig'ishtirib olgandan so'ng, bo'shagan maydonlarda moshning ertapishar navlarini takroriy ekin sifatida ekib, don yetishtirishlarini kuchaytirish zarur. Shuning uchun yerdan ikki marta hosil olish, takroriy ekin ekib, qo'shimcha daromad toppish tuproq unumdorligini yaxshilash maqsadida fermer va dehqon xo'jaliklarida kuzgi g'alladan bo'shagan maydonlarning asosiy qismiga mosh ekilmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Atabayeva H.N, Idrisov X.A, Mosh yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish. Monografiya Farg'ona 2021. 164 b .
2. Atabayeva H.N, Isroilov I.A Takroriy ekilgan soya navlarining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga mineral o'g'itlarning ta'siri.// Sholichilik va dukkakli-don ekinlarini rivojlantirishning istiqbollari: Xalqaro simpozium materiallari Toshkent, 1998. B 50-52.
3. Jumaev Z, Sirimov A Moshning ang'izga ekish agrotexnikasi. Sug'oriladigan yerlarda boshqoli g'alladan keyin ekiladigan takroriy ekinlarni parvarishlash.
4. Mavlyanova O.F va boshqalar Mosh yetishtirish texnologiyasi.
5. Narmatovich N. N. Methodology Of Training Engineers For Professional Activity On The Basis Of Module-Competent Approach //湖南大学学报 (自然科学版). – 2021. – Т. 48. – №. 12.
6. Нарбеков Н. Н. ИННОВАЦИОННАЯ ИНЖЕНЕРНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ЕЕ СТРУКТУРА //Развитие системы знаний как ключевое условие научного прогресса. – 2022. – С. 174-178.
7. Нарбеков Н. Н. МОДУЛЬНО-КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД В СОВРЕМЕННОМ ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ //Universum: технические науки. – 2022. – №. 1-1 (94). – С. 10-12.
8. Narbekov N. N. PREPARING STUDENTS FOR INNOVATIVE ENGINEERING ACTIVITIES AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //ПРОРЫВНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАК ДВИГАТЕЛЬ НАУКИ: сборник статей Международной научно-практической конференции (12 февраля 2022 г, г. Калуга).-Уфа: ОМЕГА. – 2022. – С. 15.
9. Игамбердиев Х. Х., Турдалиев З. С. Формирование новаторских изобретательских навыков студентов //Прорывные научные исследования: проблемы, пределы и возможности. – 2021. – С. 99-102.
10. Saddin o'g'li T. Z., Nurmuxammadovich P. N. MATEMATIKA DARSLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SHARQ MUTAFFAKKIRLARINING O'RNI //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 34-36.

